

ISSN:3060-4567 Modern education and development
SANOATNING BAZAVIY TARMOQLARI VA ULARNI
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Ne'matova Diyoraxon Anvarjon qizi

Farg'ona davlat universiteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada sanoatning bazaviy tarmoqlari va ularni rivojlanirish yo'llari o'rganilgan. Shu bilan birga sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlanish holatiga ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sanoatning bazaviy tarmoqlari, iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish sanoati, yalpi ichki mahsulot (YaIM), diversifikasiya.

БАЗОВЫЕ ОТРАСЛИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ПУТИ ИХ РАЗВИТИЯ

Абстрактный. В статье изучены основные отрасли промышленности и пути их развития. При этом были высказаны предложения и рекомендации по устранению факторов, влияющих на развитие базовых отраслей промышленности, и обеспечению устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: базовые отрасли промышленности, экономическая стабильность, обрабатывающая промышленность, валовой внутренний продукт (ВВП), диверсификация.

BASIC SECTORS OF INDUSTRY AND WAYS OF THEIR DEVELOPMENT

Abstract. The basic branches of the industry and ways of their development are studied in the article. At the same time, proposals and

recommendations were made to eliminate the factors affecting the development of basic branches of industry and to ensure sustainable economic growth.

Key words: *basic branches of industry, economic stability, manufacturing industry, gross domestic product (GDP), diversification.*

Kirish

Sanoatning bazaviy tarmoqlari mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy farovonlik va innovatsion o'sish uchun zarurdir. Shu sababdan, bugungi kunda sanoatning bazaviy tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda va hukumatning asosiy bosh masalalaridan biriga aylandi. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish borasida tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda va oxirgi besh yilda sohaga doir bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivoji borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan strategiyalar negizida respublikamizda sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish, raqobatdosh, eksportbop va import o'rnni bosuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishiga, sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish samaradorligini takomillashtirish va yirik sanoat korxonalarini yaratish kabi masalalarga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu kabi o'z yechimini kutayotgan masalalar bugungi kunning eng dolzarb masalalari va ustuvor yo'naliishlari qatoridadir.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yilda 12-oktyabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-169-sonli Farmonining qabul qilinishi sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirishga keng yo'l ochib berdi.


Ushbu farmonda nazarda tutilgan asosiy vazifalar mamlakatda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish orqali

raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda aholi daromadini oshirishga yo'naltirilgan yangi ishlab chiqarish korxonalarini kengaytirish va ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etishga qaratilgan bir qator vazifalar Iqtisodiyot va moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2021 yilda hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga katta hissasini qo'shdi va keng imkoniyatlar yo'llini ochdi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimiz iqtisodiyoti va aholi bandligini ta'minlashda sanoat tarmoqlarining o'rni juda katta. Shuningdek, sohaga zarur shart-sharoit yaratish maqsadida so'nggi yillarda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etildi, ularning infratuzilmasiga 10 trln so'm yo'naltirildi. 2024 yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 343,1 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi. 2024 yilning yanvar-sentabr oylarida respublikamizda jami 167,1 trln so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. 2023 yilning mos davriga nisbatan 9,1 % ni tashkil etgan.



1-rasm. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. Stat.uz

Tog' kon sanoati-yer qobig'ida joylashgan mineral resurslarni qazib olish va qayta ishslash bilan bog'liq faoliyatdir. Bu soha iqtisodiy rivojlanishning muhim jihatlaridan biri bo'lib, u rudalar, energiya manbalari, qurilish materiallari va boshqa mineral resurslar yetkazib berishini ta'minlaydi. Tog' kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati korxonalari tomonidan 2024 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,2 trln. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 100,5 % ga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqarish sanoati iqtisodiy o'sish, ish o'rirlari yaratish va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u ijtimoiy va ekologik masalalarni ham hisobga olishni talab qiladi. Ishlab chiqarish sanoati korxonalari tomonidan 2024 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 307,8 trln. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 109,4 % ga to'g'ri keldi.

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash zamonaviy infratuzilmaning muhim tarkibiy qisimlari bo'lib, ular kundalik hayot va ishlab chiqarishda asosiy rol o'ynaydi. Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati korxonalari tomonidan 2024 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,0 trln. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 104,3 % ga to'g'ri keldi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi va chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohalari, toza ichimlik suvi, toza muhit va sog'lom hayot tarzini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi ekologik barqarorlikni ta'minlaydi va aholi farovonligini oshiradi. Shuningdek, talab va taklifning o'zgarishlarini hisobga olib, texnologik yangilanishlar va aqliy yechimlarni joriy etish zarur. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati korxonalari tomonidan 2024 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 trln. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 100,3 % ga to'g'ri keldi. Xalqaro tajriba va bilimlarni izchil o'rganish orqali o'z tarmoqlarimizni rivojlantirishimiz mumkun. Davlat tashabbuslari orqali sanoatning bazaviy tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash zarur.



2-rasm. Ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'mda

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i. Sanoat ishlab chiqarish hajmi, yanvar-iyun oylarida 2024 yilda 370 trln. so'm o'tgan yilga nisbatan 76,4 trln. so'mga oshgan. Ko'rsatkichlarga ko'ra, oxirgi 4 yil ichida sanoat ishlab chiqarish hajmi yildan yilga sezilarli ravishda ko'tarilib bormoqda. Bu mamlakatimizda iqtisodiyotning va sanoat tarmoqlarining jadal rivojlanib borayotganini yaqqol dalilidir. Sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi YaIM hajmining oshishiga ham katta hissa qo'shadi².

Xulosa va takliflar

Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish jami iqtisodiy muhitni sifat jihatidan o'zgartirishi mumkun. Ushbu tarmoqlarda amalga oshirilayotgan zamonaviy yangiliklar va strategiyalar orqali, davlatlar o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishishda muhim qadamlarni qo'yishlari mumkin. Sanoat rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, balki jamiyatni barqaror ravishda rivojlantirishda ham xizmat qiladi.

Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish uchun bir qancha chora tadbirlarni amalga oshirish lozim:

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. Stat.uz

- Texnologik yangilanish: Sanoat korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va avtomatlashtirishni joriy etish.
- Innovatsion rivojlanish: Innovatsion g'oyalar va yechimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqot va tajriba-sinov loyihalarini rag'batlantirish.
- Kadrlash tayyorlash: Malakali mutaxasislarni tayyorlash va mavjud xodimlarni qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish.
- Infratuzilmani yaxshilash: Transport, energetika va kommunikatsiyasohalarida infratuzilma rivojlanishini ta'minlash.
- Mahalliy resurslardan foydalanish: Mahalliy xomashyo va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish.
- Investitsiyalarni jalb qilish: Bir qator subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa dasturlar orqali zaif tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilish.
- Bozorni o'rganish: Sanoat tarmoqlarida talab va taklifni tekshirish, yangi bozorlar tashkil etish.
- Maqsadli dasturlar: Hukumat va xususiy sektorda sanoatni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli dasturlarni ishlab chiqish.

Ushbu tadbirlar sanoatni diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim vazifadir. Sanoatni rivojlantirish borasidagi sa'y – harakatlar, nafaqat iqtisodiy stabillikni , balki ijtimoiy farovonlikni ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Toshkent.
2. M.Yu.Isakov. "Korxona iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma.-T.: "Iqtisodiyot", 2017.
3. <https://www.statista.com/statistics>
4. <https://president.uz/uz>
5. www.lex.uz